

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**“TASVIRIY SAN'AT VA MUXANDISLIK  
GRAFIKASI” TA'LIM YO'NALISHI**

**3-BOSQICH TALABASI  
Болтабоев Илхомнинг**

**“AKVAREL BO'YOQLARIDA ISHLASH YO'LLARI”**

**5140700 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yonalishi**

**RANG TASVIR FANIDAN**

# ***REFERATI***

**Ilmiy rahbar:**

**Ш.Бекмуратова**

**Andijon 2015**

## **REJA**

### **KIRISH**

#### **1.. AKVAREL BO‘YOQLAR BILAN ISHLASH**

#### **2. AKVARELDA PORTRET KOMPOZITSIYASINI ISHLASH**

#### **3. NATYURMORT KOMPOZITSIYASINI ISHLASH**

#### **4. AKVARELDA QISQA MUDDATLI ETYUDLARNI BAJARISH**

### **XULOSA**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

## **Kirish**

Jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog'lom oilani shakllantirishda mahallaning mavqeini mustahkamlash va rolini kuchaytirishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, 2012 yil O'zbekiston Respublikasida "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 13 dekabrda F-3760-son farmoyishi bilan tuzilgan Respublika komissiyasi tomonidan manfaatdor vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, jamoat hamda nohukumat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

"Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqaror" degan insonparvar tamoyildan kelib chiqqan holda, quyidagilar "Mustahkam oila yili" Davlat dasturini amalga oshirishning eng muhim yo'nalishlari etib belgilansin: bugungi kun talablarini hisobga olgan holda qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, amaldagi qonun hujjatlariga oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, yangi qonunlar, qoida va normalarni ishlab chiqish, bu masalaga jamiyatimiz e'tiborini yanada kuchaytirish; yosh oilalarga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, moddiy va ma'naviy jihatdan keng qo'llab-quvvatlash, shu jumladan qulay va shinam uy-joy bilan ta'minlash, zarur imtiyoz va afzalliklar berish; jamiyatimiz va kundalik hayotimizda mahalla institutining rolini yanada kuchaytirish va maqomini oshirish, Mustahkam oila yili maqsad va vazifalarini

hayotga tatbiq etishda mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ahamiyatini, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda shakllantirishda ularning ta'sirini kuchaytirish, yosh oilalarga zarur ko'mak va yordam berish; oila, birinchi navbatda, ehtiyojmand oilalarning muammolarini hal etishda davlat va jamiyat tomonidan g'amxo'rlikni yanada kuchaytirish, ularga moddiy yordam ko'rsatish va farzandlarni tarbiyalashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, munosib ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish, bunda oilani mustahkamlashda asosiy yukni o'z yelkasiga olgan ayollarga alohida e'tibor qaratish; "Sog'lom ona – sog'lom farzand" tamoyiliga muvofiq oila salomatligini, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish; jamiyatimizning ma'naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mustahkamlash, jamiyatimizda yuksak ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan va kuchayib borayotgan turli xil zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning o'rnini va ahamiyatini oshirish; jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini kuchaytirish va shu maqsadda oila institutining ta'lim hamda tarbiya muassasalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali hamkorligini ta'minlash.

2. Respublika komissiyasi (SH.M.Mirziyoyev) zimmasiga "Mustahkam oila yili" Davlat dasturining amalga oshirilishini tashkillashtirish va monitoring qilish vazifalari yuklatilsin.

Respublika komissiyasi: ikki hafta muddatda, "Mustahkam oila yili" Davlat dasturining ustuvor yo'nalishlari va tadbirlaridan kelib chiqqan holda, respublika davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, jamoat tashkilotlari tomonidan har bir idora, viloyat, shahar, tuman va aholi punkti bo'yicha "Mustahkam oila yili"ning hududiy va tarmoq dasturlari ishlab chiqilishi hamda qabul qilinishini ta'minlasin; "Mustahkam oila yili" Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlarni to'liq, sifatli va o'z vaqtida bajarish bo'yicha respublika davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va nodavlat

notijorat tashkilotlari darajasida ishlar aniq-puxta muvofiqlashtirilishini tashkil etsin, Dastur amalga oshirilishi ustidan tizimli nazorat o‘rnatsin; Dasturning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi materiallarni yilning har choragida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlislarida ko‘rib chiqsin; har chorak yakunlari bo‘yicha “Mustahkam oila yili” Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlar bajarilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga axborot berib borsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (SH.M.Mirziyoyev) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlarda (shaharlarda) “Mustahkam oila yili” Davlat dasturini amalga oshirish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyat, shahar, tumanlar hokimlari boshchiligida hududiy komissiyalar tuzilishini ta‘minlasin, ularning zimmasiga Dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlar tegishli hududlarda og‘ishmay va to‘liq hajmlarda amalga oshirilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlikni yuklasin.

4. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi, ommaviy axborot vositalari: aholi, ayniqsa, yosh oilalar o‘rtasida “Mustahkam oila yili” Davlat dasturining maqsad va vazifalarini, davlat tomonidan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish hamda mustahkamlash bo‘yicha unda belgilangan chora-tadbirlarni muntazam va keng ko‘lamda tushuntirib borilishini; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishga qo‘shgan aniq hissasini aks ettirgan holda “Mustahkam oila yili” Davlat dasturining amalga oshirilishi to‘g‘risida keng jamoatchilik doimo xabardor qilib turilishini ta‘minlasinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri SH.M.Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Toshkent shahri, 2012 yil 27 fevral Erkin va farovon hayotimizning huquqiy kafolati “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida 7 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul

qilingan kunning o‘n to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda davlat va jamoat arboblari, fan, madaniyat va san’at namoyandalari, poytaxt jamoatchiligi, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy davlatlarning elchixonalari va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari ishtirok etdi. Yig‘ilishni Toshkent shahar hokimi vazifasini bajaruvchi R.Usmonov ochdi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tantanali yig‘ilishda ma’ruza qildi. Davlatimiz rahbari yurtimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar Konstitutsiyamizdagi tamoyillar va qoidalarining amaldagi ifodasi ekanini alohida ta’kidladi. Biz tanlagan yo‘l – bugun xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan taraqqiyotning “o‘zbek modeli”ni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonida erishayotgan barcha yutuqlarimiz, hayotimizga yangicha mazmun bag‘ishlayotgan islohotlar Konstitutsiyamiz qoidalariga to‘la mosdir. Bu yil Vatanimiz mustaqilligining yigirma yilligini keng nishonladik. Xalqimiz istiqlol yillarida erishayotgan betimsol yutuqlarda Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan tamoyillar mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Zero, Bosh qomusimiz o‘zining mazmun-mohiyati bilan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish, inson huquqlari ustuvorligini, tinchlik va totuvlikni ta’minlash kabi yuksak maqsadlarga erishishning muhim kafolatidir. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2011 yil – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili deb e’lon qilingan edi. Bu borada maxsus davlat dasturi ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Mazkur dastur asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, qulay biznes muhitni yaratish, jamiyatimizda xususiy mulk ahamiyatini tubdan oshirish, iqtisodiyotda davlatning aralashuvini kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar bajarildi. Tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishning huquqiy asoslari takomillashtirildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugun mamlakatimiz iqtisodiyoti tayanchi, xalqimiz farovonligining muhim kafolatiga aylandi. Ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini ko‘paytirishda

mazkur sohaning o'рни va ahamiyati kundan-kunga oshib borayotgani bunga misoldir. Prezidentimiz Islom Karimov kirib kelayotgan yangi – 2012 yilni mamlakatimizda “Mustahkam oila yili” deb e’lon qilishni taklif etdi. Davlatimiz rahbarining bu taklifi yig’ilganlar tomonidan gulduros qarsaklar bilan qo‘llab-quvvatlandi. Tantanali marosim san’at ustalari va yosh ijrochilarning bayram konserti bilan yakunlandi.

## **1. Akvarel bo‘yoqlari bilan ishlash**

**Akvarel bo‘yoqlar.** Akvarel bo‘yoqlar qadimgi Misr musavvirlariga tanish edi. Bizlargacha papirusda ishlangan naqshlar orqali yetib kelgan. Ushbu bo‘yoqlarni bog‘lovchi moddasi kelib chiqishi suvda eriydigan o‘simlik yelimlar edi. Ushbu turdagi akvarel tarkibida oq bo‘yoq bo‘lganligi uchun u zamonaviy guashga yaqin edi.

Akvarelli rangtasvirni rivojlanishi XII asrda kitob rangtasviri bezagi bilan bog‘liq. Fors miniatyuralari misolida buni ko‘rishimiz mumkin va keyinchalik ushbu usul Sharq davlatlariga tarqalib ketgan. XV asrlarga borib toza yelimli suv bo‘yoqdan foydalanilgan (qo‘shimcha moddasiz). Ushbu bo‘yoqlar o‘zini tozaligi, shaffofligi bilan ajralib turgan. Asrning o‘rtalariga borib nafaqat kitob muqova bezagida, xatto rasm va badiiy bezaklarda xam yelimli, suvda eriydigan bo‘yoqlardan musavvirlar foydalanishgan. G‘arbda akvarel bo‘yoqlarining texnik imkoniyatlari birinchi bo‘lib Albrext Dyurer (1471-1528) tomonidan keng ochib berildi. Amalda musavvirni manzaralarida ko‘rishimiz mumkin. XVII asr boshlarida akvarel mustaqil rangtasvir turiga aylanib XVIII asr va aynan XIX asrda ingliz rantasvirchilari sharofati bilan rivoj topib yuksaklikka erishdi.

Akvarel ikki tur usulga bo‘linadi. Ingliz usuli (texnikasi) namlangan qog‘ozga rangtasvirlab chiziq qismlarini umumiy quyruq tus berib suriladi va yorug‘liklar mo‘yqalam yordamida yuviladi. Italyancha usul, quruq qog‘ozga bo‘yoqni ustma-ust ko‘p qatlamini ishlash orqali erishiladi.

Rossiyada akvarelda rangtasvir usuli jadal rivojlanishi XIX asrdan boshlandi. Bugungi kunda akvarelda rangtasvirlash texnikasi rivojlanishini bizni Respublikamizdagi namoyish etilayotgan ko‘rgazmalarda akvarelchi rassomlar M. Sodiqov, D. Mursalimov asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Rassomlar yuqorida qayd etilgan usulda ishlashadi va akvarelli rangtasvir usuliga katta ahamiyat berishadi.

Akvarel bo‘yoqlari yelimli shaffof bo‘yoqlar guruxiga kiradi. Akvarel degan nom, lotin yozuvidan kelib chiqib “akva”-suv ushbu tur bo‘yoqga erituvchi xisoblanadi. O‘simlikdan olingan yelimlar akvarel bo‘yoqlarini bog‘lovchisi xisoblanadi, bular gummiarabik va dekstrin, suvda tezda eriydigan yelimlar.

Akvarel bo‘yoqlariga plastifikator sifatida glitsirin va invertirlangan qand, ayrim xolatlarda asal xam qo‘shiladi. Shu bilan egiluvchanlik sifati oshadi va tezda eriydi, ishlash jarayonida ancha qulaylik yaratadi.

Glitsirin namlikni uzoq saqlaydi, bo‘yoqlarni tez qurishiga va mo‘rt bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi. Akvarel bo‘yoqlarga yuza-aktivli modda, buqa o‘t puffagi moddasi kiritiladi. Shu bilan qog‘ozda yengil bo‘yash imkoniyati yaratiladi, chunki buqa o‘t puffagi moddasi bo‘yoqlarni tomchi bo‘lib yig‘ilib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bo‘yoqlarni mog‘orlashga qarshi oldini olish uchun antiseptik fenol qo‘shiladi.

Akvarel - yagona bo‘yoq turi, o‘ziga xos toza, tiniq, va yorqin rangligi bilan ajralib turadi. Bunga nafaqat toza materiallardan foydalanish bilan erishilgan, balki dispersli, pigmentlarni maxsus ishqalash, tuyush orqali juda xam mayin kukunga aylanishidandur.

### **Akvarel bo‘yoqlarni o‘ziga xos xususiyatlari**

“Och sariq oxra”(Oxra svetlaya)

Bo‘yoq sovuq tusda, shaffofli va birmuncha bo‘g‘iq ko‘rinishda. Och sariq oxrani afzallik tomoni u quriganda qog‘ozga kirishib moysimon bo‘ladi. Och sariq oxra yuqori yorug‘ga chidamli bo‘yoq. Yorug‘likga chidamliligi 5 ball, ikki yulduzchali. Oxrani temir idishda qorishtirish tavsiya etilmaydi.

“Kadmiy limon rang” (Kadmiy limonniy)

O‘ziga xosligi uni qancha qatlam bo‘yamang u yaltiramaydi, guashga yaqinlashadi, lekin shaffofligi va rangini toza yoriqligi bilan guashga o‘xshamaydi. Yorug‘likga chidamliligi 5 ball.

“Kadmiy sarig‘” (Kadmiy jeltiy)

Bo‘yoq aynan kadmiy limonliyligaga o‘xshash, lekin undan ko‘ra shaffofli. Yorug‘likga chidamliligi 5 ball.

“Tabiiy siena” (Siena naturalnaya)

Bo‘yoq sariq-jigarrang tusda, o‘ziga xosligi och oxraga o‘xshash, lekin yuksak yorqin tiniqligi undan ajralib turadi.

“Oltin-sariq “JX” (Zolotisto-jeltaya “JX”)

Kelib chiqishi organik bo'yovchi. Bo'yoq juda xam shaffof, iliq tusda. Qog'ozga juda xam yaxshi suriladi. Bo'yalganda shoyisimonligi bilan ajralib turadi. Yorug'likga chidamliligi 4 ball.

“Kadmiy qizg'ish-sariq” (Kadmiy oranjeviy)

Bo'yoq fakturasi kadmiy limon rang va sariqga aynan o'xshash biroq, ularga nisbatan ancha shaffofli. Yorug'likga chidamliligi 5 ball.

“Qizil oxra” (Oxra krasnaya)

Qizg'ish jigarrang bo'yoq, shaffofligi, balandligi bilan ajralib turadi. Yupqa qatlamlarda yumshoq jigirrang-sariq tusda ko'rinadi. Qog'ozga oson bo'yaladi va oson yuviladi. Yorug'likga chidamliligi 5 ball.

“Binafsharang kraplak” (Kraplak fioletoviy)

Binafsha rang bo'yoq o'ziga xosligi bilan qizil kraplakga yaqin. Binafsha rang kraplak ultrafioletoviy nurlanishi orqali jigarrang tusga ega bo'ladi. Yorug'likga chidamliligi 3 ball.

“Ultramarin”

Bo'yoq ko'klar guruxiga kiradi, iliqroq tusda. O'ziga xos xususiyati, oz suvga bo'yoqni eritib surtganda, qog'ozda och suyuq kulranglar orasida to'q ko'k nuqtalar paydo bo'ladi (ushbu xolat aglomeratsiya deb ataladi) tarkibidagi juda xam oz xlor ushbu xolatni paydo qiladi. Ushbu dog' nuqtalarni kamaytirish uchun distillirlangan yoki yomg'ir suvidan bo'yoqni eritishda foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Yorug'likga chidamliligi 3 ball.

“Ko'k ko'balt rang” (Kobalt siniy)

Yangi surilgan bo'yoq nozik ko'k rangga ega, bo'yoq intensiv emas, qog'ozga tekkis surkalmaydi; suv bilan ko'proq aralashganda arziyasiz bodroqsimon dog'lar paydo bo'ladi. Ko'k kobalt vaqti o'tgach (yoriqda qanday bo'lsa qorong'ilikda xam shunday) yashil rangga va qorayishiga qog'oz sarg'ayishi orqali olib keladi.

“Ko'k moviy rang “FS” (Golubaya “FS” (ftalotsiannovaya)

Juda xam intensivli sovuq tusga ega bo'yoq, tayyor aralashma bo'yoqga namlangan mo'yqalamni yengil tegishi bilan bo'yoq mo'yga singib oladi va

qog‘ozga tekis bo‘yaladi. Qog‘ozga qatlamlarni to‘yintirib borganda extiyotkorlik talab etiladi. Chunki bo‘yoq qog‘ozdan yuvilishi qiyin. Yorug‘likga chidamliligi 4 ball.

“Yashil zumrat rang va yashil ko‘kat rang”

(Izumrudnaya zelyonaya i zelyonaya travyanaya)

Juda xam intensiv yashil ranglar. Bo‘yoq tiniq shaffofligi bilan ajralib turadi. Bo‘yoqlar rangi bilan bir-biridan farq qiladi lekin xususiyati bilan bir-biriga o‘xshashligi bor. Ikkala bo‘yoqlarni o‘ziga xos xususiyati to‘liq yuvilmasligi. Ushbu xolatni e‘tiborga olgan xolda bo‘yoqlar bilan ishlaganda juda xam extiyotkorlik kerak. Yorug‘likga chidamliligi 4 ball.

“Yashil permanent” (Permanent zelyoniy)

Juda xam toza, yorqin-yashil bo‘yoq, yashil bo‘yoqlar guruxidan eng ulug‘i. Shaffof va tiniqligi yuqori. Qog‘ozga tekkis va oson bo‘yaladi, yuvilishi xam yaxshi. Mo‘yqalamga bo‘yoq tezda shimiladi. Yorug‘likga chidamliligi 3 ball.

“Tabiiy umbra va kuydirilgan umbra”

(Umbra naturalnaya i umbra jyyonaya)

Tabiiy umbra-sovuq tusda (tamakirang). Kuydirilgan umbra-iliq tusda (shokolad rang). Bo‘yoqlar yarim shaffof, qoniqarli, mo‘yqalam to‘yinadi va qoniqarli darajada qog‘ozdan yuviladi. Rangi va fakturasi birmuncha bo‘g‘iq. Yorug‘likga chidamliligi 5 ball.

“Kuydirilgan siena va temirli qizil” (Siena jjenaya i jeleznaya krasnaya)

Ikkalasi xam qizg‘ish jigarrang intensiv bo‘yoqlar, bir biridan farqli tomoni kuygan siena iliq tusga ega. Biroq temirli qizil-sovuqroq, yupqa bo‘yalgan qatlamlarda yana xam ko‘proq ajralib ko‘rinadi. Yorug‘likga chidamliligi 5 ball.

“Yorqin qizil” (Alaya)

Juda xam shaffof intensiv bo‘yoq, yorqin qizil rang bilan ishlash jarayonida extiyotkorlik kerak. Bo‘yoqni suv bilan eritganda mo‘yqalamni to‘yintiradi, chunki qog‘ozda intensiv bo‘yalgan maydon juda qiyin yuviladi.

“Qizil kraplak” (Kraplak krasniy)

Intensiv bo‘yoqlardan biri qizil malina rangli bu bo‘yoq mo‘yqalamga tezda kirib oladi va qog‘ozda qatlam tekis surtiladi. Yorug‘likga chidamliligi 3 ball.

#### “Karmin”

Juda xam intensiv bo‘yoq qizil malina rang, shaffofli kraplakga nisbatan sovuqroq tusga ega. O‘ziga xosligi bilan karmin kraplakga yaqin. Yorug‘likga chidamliligi 3 ball.

#### “Jigarrang mars” (Mars korichnoviy)

Bo‘yoq iliq tusda, kuydirilgan umbraga nisbatan bir muncha sovuq. Bo‘yoq shaffofli va intensivli. Qog‘ozga yaxshi bo‘yaladi va yuviladi. Yorug‘likga chidamliligi 5 ball.

#### “Sepiya”

Ushbu bo‘yoqni o‘ziga xosligi birmuncha rangda o‘zgaruvchanligida. To‘yingan qatlamida u to‘q jigarrang sovuqroq tusda. Nozik, yupqa, shaffof qatlamlarida kulrangsimon jigarrang. Qog‘ozga surtilishi yaxshi. Yorug‘likga chidamliligi 5 ball.

#### “Ganza limonli, ganza sariq, qizg‘ish sariq litol”

(Ganza limonnaya, ganza jeltaya, litol oranjevaya)

Barcha bo‘yoqlar yorqin va toza rangli. Intensivligi va yarim shaffofligi bilan ajralib turadi, bo‘yoqni mo‘yqalam tez shimib oladi. Yorug‘likga chidamliligi 4 ball.

#### “Kinovar” (imitatsiya)

Bo‘yoq juda xam yorqin va toza qizil, ozroq nim sariq seziladi, qog‘ozga tekis yoyiladi. Yupqa va qalin surtilgan bo‘yoqlar yaxshi yuviladi. Shu bilan birga qog‘ozda bilinar bilinmas iz qoldiradi. Yorug‘likga chidamliligi 3 ball.

#### “Pushti rang lok” (Lak rozoviy)

Yorqin rangli pushti bo‘yoq sovuqroq tusga ega. Bo‘yoq intensivli, shaffofli, mo‘yqalamga yengil shimiladi. Qog‘ozga yupqa qatlam surtilganda oldindan bo‘yoqni ko‘proq suv bilan aralashtirib olish kerak. Qog‘ozga tekis surtiladi. Qog‘ozdan bo‘yoq yuvilganda iz qoladi. Yorug‘likga chidamliligi 3 ball.

### “Tioindigo qizil rang” (Tioindigo krasnaya)

Rangi bilan och qizil kraplakga yaqin, iliqroq tush bilan undan farq qiladi, intensiv va shaffofli.

### “Pushti rangli lok” (Lak fioletoviy)

Sovuq tusli intensiv bo‘yoq., yarim shaffofli, tekkis surtiladi va yuviladi. Qog‘ozdan yuvilganda nim rang iz qoldiradi. Yorug‘likga chidamliligi 3 ball.

### “Antraxinonli qora rang” (Antraxinonovaya chernaya)

Bo‘yoq yuqori shaffofligi bilan ajralib turadi. To‘q qatlamlarda suyakga (kost jjeniyga) nisbatan, lekin keragidan yuqori kul kukunli gazli qorani (saja gazovaya) intensivligiga ega emas. Bo‘yalishi va qog‘ozdan yuvilishi yaxshi. Yorug‘likga chidamliligi 3 ball. Rossiyada ishlab chiqarilgan akvarel bo‘yoqlar sifati yuqori, ayniqsa Sang Peterburg badiiy bo‘yoqlar zavodi maxsuloti. Bo‘yoqlar yarim quriydigan jajji plastmass qolipcha idishlarda, bog‘lovchisi gummiarabik. Yana bog‘lovchisi kazeinla suyultirilgan xolda tyubiklarga joylashgan qattiq berkitilgan xolda bo‘ladi.

Akvarel uchun politra farforlisi eng qulayi, plastmass va ortsteklodan badiiy jamg‘arma zavodi ishlab chiqaradi.

### **Akvarel bo‘yoqlar bilan ishlashni o‘ziga xos tomonlari.**

Akvarelli rangtasvir eng murakkab badiiy usullardan biri xisoblanadi. Ushbu rangtasvir turi uzoq muddat amaliyot bilan shug‘ullanishni taqozo etadi. Bunga nafaqat toza badiiy usul bilimiga ega bo‘lmoq, shu bilan birga bo‘yoqlarni o‘zaro nisbiy uyg‘unligini xis etish xam lozimdir.

Akvarel bo‘yoqlarini yorqin va shaffofligi qog‘ozni oqlik darajasi bilan bog‘liq, shuning uchun qog‘oz tanlashda nafaqat uni sifati muxim, qolaversa uni qanchalik oqligi xam katta axamiyatga ega. Qog‘ozni sifat darajasi shunday bo‘lishi kerakki , agar qog‘ozni bir joyini bir necha marotaba bo‘yoq qatlami ustma ust berilganda xam, qatlamlar orasidan yaxshi yoritib berishi lozim.

Akvarelni eng muxim qadr qimmatli shaffofligida. Qog‘oz juda xam oq yuksak sifat darajali bo‘lishi shart.Sarg‘ayib borayotgan qog‘oz akvarelli rangtasvirni barcha rang tizimini o‘zgartirib yuboradi. Qog‘oz oppoqligi bu

rangtasvirni ichidan yorug'lik sochuvchi manba, shuning uchun qog'oz ushbu rangtasvir turida yorug'lik beruvchi ekran xisoblanadi. Bundan tashqari oq qog'oz akvarel bo'yoqni optik oqartiruvchisi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu rangtasvir turini palitrasida esa oq bo'yoqni o'zi yo'qligidan dalolat beradi.

Qog'oz turini tanlashda tasvir xususiyatlariga butunlay mos kelishini xisobga olish zarur. Qog'oz mo'yqalamni xar bir tegilishiga xamoxanglik bilan javob berishi va maromidan burib yubormasligi kerak. Fakturasi mayda donli qog'ozlar xajm jixatidan uncha axamiyatga ega bo'lmagan predmetlarni rangtasvirlashda qo'llanadi, ko'proq interer yoki uncha e'tiborsiz shakllarni tasvirlashda va yana predmetlarni nozik xavo fazoliligini ifodalashda ishlatiladi.

Yirik donli qog'ozni, keskin fakturali predmetlarni ifoda etishda qo'llaniladi. Yirik fakturali qog'oz rangtasvir yuzasini sifatini boyitadi. Ushbu yuzadagi bir bo'yoqni o'zi xar-xil tusga kirishi qay tarzda qog'ozni yuzasiga yotishiga bog'liq, bu bir biridan o'tib borishlar tanish rang o'yinini eslatadi, bunuqasini silliq qog'ozda erishish mumkin bo'lmaydi.

Rangtasvir uchun tayyorlangan qog'oz toza va yetarlicha nam bo'lishi kerak. Ishlashdan oldin qog'oz sovunli suvda yuvilgan bo'lishi shart. Buning uchun shyoloch miqdori kam, bolalar sovunidan ozroq miqdorli eritma tayyorlanadi va qog'oz yuzasi yuviladi. Qog'ozni ikki tarafi xo'llanadi, bu bilan qog'ozni tez qurishidan saqlaniladi va bir xil tarzda nam qochgan sari qisqarib tekkis o'tiradi.

Guashli rangtasvir uchun materiallar. Guash - bo'yoq shaffofli emas, zich, qurishi bilan usti yaltiramas baxmalsimon tusga kiradi. Guashda nafaqat qog'ozga ishlash mumkin, balki gruntlangan matoda, kartonda xam.

Guashni tarkibi quyidagilardan iborat; mayin tuyilgan pigment, bog'lovchisi gummiarabik, mevali daraxt yelimi, dekstrin, plastifikator sifatida glitsirin, yuzasi aktiv modda preparat sifatida mol o't puffagi moddasi alezarin moyi va antiseptik-fenol kiritiladi.

Akvarel bilan guashni farqi shundaki, guashni bog'lovchisi kamroq, pigmenti ko'proq tashkil topgan, bundan tashqari berkituvchanligini oshirish

uchun ko'p guashli bo'yoqlar tarkibida oqartiruvchisi xam mavjud. (Qo'rg'oshinli, ruxli, titanli, baritli) mana shular bo'yoq quriganda birmuncha oqartirib beradi, bundan tashqari to'ldiruvchilardan blanfiks, kaolin xam tarkibiga qo'shiladi.

Guashga qo'yiladigan talablar: bo'yoq mo'yqalamga yaxshi shimib olishi yuzaga surtib berkitilganda bo'yoq tekkis iz qoldirmasligi shu bilan birga quriganda yorilmasligi lozim. Qalin xajmli bo'yoq berilganda yoki yupqa qilib suvda erigan qatlamli bo'yoqlarni surtib berilganda, tag qatlamdagi bo'yoqlarni butkul berkitishi kerak.

Qurigandan keyin ishqalanish natijasida, va qog'oz bukilganda bo'yoq to'kilmasligi kerak. Buning uchun maxsus egilmaydigan papkada saqlanishi lozim. Bajarilgan ish qog'ozda yoki kartonda bo'ladi.

Guash bilan ishlaganda kichik idishlarga koler tayyorlab ishlansa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki koler bilan ishlaganda tag qatlam quritib ishlanadi. Bu bilan tag qismidagi rangtasvir berkitilib o'ylab qo'ygan natijaga erishiladi va yana koler berkitilganligini oshiradi.

### **Tasvir uchun qalamlar**

Bir zamonlar rassomlar qo'rg'oshin va kumush qalamlarni asosan xomaki tasvir uchun foydalanishgan. Keyinroq jigarrang va qora qalamlar paydo bo'ldi. Grafit ashyo sifatida topilgan, uni keng miqdorda ishlab chiqarildi va qo'llanildi.

#### **Italyancha qalam.**

Italian qalami chizgi uchun ishlatiladigan qalamlar turiga kiradi. Farqli tomoni uni yaltiramas baxmalsimon to'q qoraligidadir. Qog'ozga yengil bo'yaladi. Italian qalami asosan rassomlar tomonidan portret va inson qomati ta'sir etganda ya'ni uzoq va qisqa muddatli chizmatasvir bajarilganda qo'llaniladi.

Italian qalami XV asrdan mavjud. Ular qattiq, o'rtacha va yumshoq qalamlarga bo'linadi.

Italian qalamini tayyorlash uchun quyidagi ashyolar qo'llaniladi (miqdorda, qismda)

|            |    |
|------------|----|
| Grafit     | -1 |
| Gaz qurimi | -1 |

|                                  |      |
|----------------------------------|------|
| Neytral qora                     | -1   |
| Gips                             | -1,3 |
| Kraxmal yoki dekstrin            |      |
| 8 protsentli eritma ko‘rinishida | -7   |

Qalam tayyorlash uchun pigmentni juda mayin qilib kolloidli tegirmonda tuyiladi. Olingan xajmdan qalamlar presslanadi. To‘g‘ri burchak kesmda va uni  $150^0$ - $250^0$ S da 2-4 soat kuydiriladi. Qattiq yoki yumshoqligi uni qancha muddat kuydirilganiga bog‘liq .

Chizmatasvirlash uchun ko‘mir.

Chizmatasvirlash uchun, ko‘mirni qurigan va po‘stlog‘idan tozalangan, tol va oq qayin daraxtni ingichka yosh shoxchalarini, xavosiz germetik idishda 3-5 soat  $300^0$  S da kuydiriladi. Maxsus teshikchadan ko‘kintir tutun chiqgach ko‘mir qalamchasi tayyor bo‘lgan xisoblanadi.

“Retush” qalam.

“Retush” qalam to‘rtta nomerli bo‘ladi: №1-juda yumshoq, №2-yumshoq, №3-o‘rtacha kattiqlikda, №4-qattiq. “Retush” qalam Italyan qalamini eslatadi, lekin biroz quruqroq. “Retush” qalami quyidagicha tayyorlanadi: Mayda tuyilgan oq qayin ko‘miri loy va ozroq miqdorda qora qurim.

“Retushda” da chiziqli tortganda intensiv quyuqlik chiziqli qoldiradi. Retushni fiksativ bilan fiksatsiya qilishni zaruriyati yo‘q.

Chizmatasvir uchun preslangan ko‘mir.

Ishlab chiqarishda quyidagicha tayyorlanadi: Mayda tuyilgan oq qayin ko‘mir (50% dan to 72% gacha), chasov yarskoy loy (26% dan to 50% gacha) va oz miqdorda ultromarin pigmenti (3% dan to 8% gacha). So‘ng  $500^0$ S- $800^0$ S da 2-4 soat davomida kuydiriladi. Qattiq yoki yumshoqligi uning kuydirilish jarayoniga bog‘liq. Preslangan ko‘mir tabiiy ko‘mirga nisbatan quyuqlik to‘q tusga ega.

**Pastel, sangina, sous va boshqa materiallar.** “Pastel”

Pastel nozik tusdagi qalamchalardan iborat turli ranglardan jamlangan qalamdir. Uning tarkibiga preslangan pigment, kaolin, blanfiks, bo‘r, chasov-yarskoy loy, oq kul kiritilgan.

Uning xarakterli xususiyatlari - xira, nozik, yaltiramas baxmalsimon rangligida, chunki boshqa materiallar rangtasvirda ushbu xolatni berolmaydi.

Qog‘ozda pastel yaxshi turmaydi, salgina zarbaga xam chidolmasdan to‘kilib ketadi. Shuning uchun pastelda ishlash uchun g‘adir-budur qumqog‘ozga o‘xshash materiallar tag asos bo‘la oladi. Bundan tashqari sotuvda maxsus pastel uchun tag asos sifatida maxsus qog‘ozlar sotiladi. Ular turli rangda va turli tusda bo‘ladi, g‘adir-budirligi xam turlicha. Pastelni fiksatsiya qilish uchun “Badiiy jamg‘arma” birlashmasi maxsus “lok fiksativ” lar ishlab chiqargan. Ammo undan foydalanilganda pastelni xususiyati o‘zgarib yaltira boshlaydi. Shuning uchun ish jarayoni yakuniy qismida lok - fiksativdan foydalanish maqsadga muvofiq. emas. Chunki uning xususiyati o‘zgarib koloritiga o‘zgarish kiritadi va yaltirab qoladi.

Pastelda ishlash uchun planshet tayyorlanib ushbu planshetga qumqog‘oz tortib chiqiladi va ushbu qumqog‘ozga ko‘zda tutilgan rangtasvir bajariladi.

Rangtasvirlashda sizga rastushka - ya’ni charmdan qalam shaklida ishqalagich tayyorlash kerak bo‘ladi. Agarda siz rastushkadan foydalanmasdan barmog‘ingizda ishqalayversangiz barmoq terisi yedirilib qon chiqishi mumkin.

Pastel zarbaga bardosh bermasligini xisobga olgan xolda va chang rangtasvirni koloristik xususiyatiga zarar keltirishini xisobga olgan xolda, buning extiyot tadbir choralarini xisobga olgan xolda ximoya vosita tayyorlaymiz. Planshetimiz chetiga 5 mm chiqqan xolda ingichga reykachani shurup bilan burab o‘rnatamiz. Keyinchalik oynali gulrom o‘rnatilganda 5 mm masofa asar bilan oyna oralig‘i bo‘lib ximoya vositasi sifatini bajaradi. Shu bilan biz asarni oynaga tegib turishidan va chang kirishidan saqlab qolamiz. Rassomlar o‘z asarlarini, ag‘darma charmda, torshon qog‘ozda, vatmanda, filtr qog‘ozda, mayda donli qog‘ozda, rulonli qog‘oz, gruntlangan matoga, kartonga- maxsus gruntlar bergan, (bular kraxmalli kleyster va mayda kukunli pemza).

#### “Sous”

Sousning uch-to‘rt tusligi mavjud. Bular: qora, kulran, oq, jigarrang. Intensiv bo‘yash xususiyatiga ega. Sousni tayyorlashda pigment, chasov-yarskoy loy va preparat OP-7 dan foydalanilgan.

Sous baxmalsimon tus beradi, qog'oz ustiga yengil bo'yaladi. Chizmatasvir bajarilganda ikki usuli mavjud: a)quruq, b) suvda eritilgan xolda. Sousda ishlash jarayonida uchli rastushkadan foydalaniladi.

Sousdan foydalanilgan xolda chizmatasvir bajarilganda rassomlar qog'ozni butunlay mo'yqalam orqali bo'yab olib, quruq sousni o'zi bilan to'q dog'larni turli tus berib, oxirigacha yetkazib, shtrixlar berib, ko'zda tutgan maqsadga erishish mumkin. Agar kerak bo'lsa retush qalamdan xam qo'shib foydalansa bo'ladi.

Rassomlar qancha ko'p sousdan foydalanishsa shuncha ularni maxorati, malakasi oshib nozik sir asrorini o'ziga kashf etadi, faqat amaliyot orqali texnik usul uslubiga erishishi mumkin.

### “Sangina”

Sangina intensiv jigarrang tusga ega. Sanginani mayda tuyilgan, kuydirilgan sienadan va chasov yarskoy loydan tayyorlanadi.

Sangina qalamlari iliq qizil va to'q jigarrang tus beradi.

Sangina bilan foydalanganda ishlash uslubi ko'mir qalam bilan ishlash jarayoniga o'xshash. Sangina bilan ishlab amaliy ish bajarganda, texnik usul va maxoratga ega bo'lish mumkin. Sangina uchun tag asos qog'ozni barcha turlari va karton bo'lishi mumkin.

### **Yordamchi materiallar. “Rastushka”**

Sangina, sous, pastel bilan ishlaganda rastushkadan qo'llaniladi. Rastushkani ag'darma charm (zamsha, layka) dan tayyorlanadi. Qog'ozdan xam tayyorlasa bo'ladi. Buning uchun uchburchak shaklida kesib, tekis tarafidan uchli tarafiga qarab o'raladi, shunda ikki tarafi uchli shakl bo'ladi.

“O'chirg'ich”. O'chirg'ichlar yumshoq va qattiq bo'ladi. Yumshoq oq o'chirg'ichlar turli qalamlarni o'chirish uchun mo'ljallangan. Uning tarkibiga to'ldiruvchi sifatida marmar kukuni xam kiritilgan.

Qattiq o'chirg'ichlar siyoxni o'chirish uchun mo'ljallangan. Kattik o'chirg'ichlar tarkibiga tuyulgan shisha kukuni to'ldiruvchi sifatida kiritilgan.

Fabrikada ishlab chiqarilgan oq o'chirg'ichlarni qattiq turi xam uchrab turadi. Ular qalamni qog'ozga surkatib yuboradi. Sifatini oshirish uchun 1-2 sutkaga

benzinga solib qo'yiladi. O'chirg'ich taxminan o'z xajmiga nisbatan 1,5 barobar shisha boshlagach uni yaxshilab tozalanadi va qaynagan suvda 1-2 soat ushlab turiladi, toki xidi qochguncha. O'chirg'ich qota boshlagach suv yana yangilanadi va yaxshilab artib quritiladi.

## 2. Akvarelda portret kompozitsiyasini ishlash

Portret (fransuzchadan; portrait, eski fransuzchadan; portraite) – ya'ni qiyofadan – qiyofaga ko'chirish degan ma'noni beradi. Portretning turlari juda ko'p bo'lib, ular asosan rangtasvirda, grafikada, haykaltaroshlikda, poligrafiyada va fotografiya sohalaridan tashqari adabiyot hamda kriminalistikada, so'z bilan tasvirlash (slovesный) orqali chiziladigan har xil xarakter va qiyofaga ega bo'lgan portretlarni ko'rishimiz mumkin.

Tasviriy san'atda portret janri mustaqil janr bo'lib tasvirlanayotgan inson qiyofasi xarakterini badiiy yechimlar orqali har xil ranglar aralashmasidan foydalangan holda tasvirlashdan iboratdir. Portretida asosan insonning tashqi qiyofasini chizish orqali uning ichki dunyosini tasvirlash lozimdir. Bunda asosiy e'tiborni nafaqat uning yuz tuzilishi ko'rinishiga, balki uning ichki dunyosiga ham qaratmog'imiz lozim.

Portretida o'xshashlik, portreti tasvirlanayotgan shaxsning tashqi tuzilishigina emas, balki uning ichki kechinmalari va ruhiyatini, takrorlanmas tipik qiyofasini, milliy ko'rinishini tasvirlashdan ham iboratdir. Buning uchun, avvalo tasvirlanayotgan shaxsning o'tirgan yoki tik turgandagi holati, uning anatomik jihatlari, bosh tuzilishi, ko'z, quloq, og'iz holatlari, burun qirralari, jag', yonoq holatlarini e'tiborga olish bilan birga, boshning bo'yin orqali yelkaga bog'lanish holati va anatomik mushaklar, bosh chanog'i, bo'yin, yelka, ko'krak qafasi suyaklariga e'tiborni qaratgan holda tasvirlash kerak bo'ladi.

**Tus va tusda ishlash.** Tus rangtasvirning ajralmas bir qismidir. Boshlovchi yosh rassomlar o'zlarining birinchi rangtasvir ishlarini ishlash paytida tus to'g'risida o'ylashni esdan chiqarib qo'yadilar. Bu bilan ular rangtasvirda yorug'lik haqida unutib, tasvirlanayotgan tasvirning ranglar uyg'unligini buzib qo'yadilar. Yosh ijodkorlar rangtasvir paytida ranglarni oldindan ko'ra bilgan holda, tuslar tasviriga yetarli tarzda amal qilishi kerak. Bu rangtasvirning qaysi yo'nalishidan qat'iy nazar u, ranglarda asosiy muvaffaqiyatlarga erishgan bo'ladi. Oldindan bajarilgan tus tasviri mashqlari ko'pchilik boshlovchi yosh ijodkor rassomlarni juda katta muvaffaqiyatlarga olib keladi. Buning uchun boshlang'ich

guruhlarda rangtasvir fanini o'rgatishda birinchi rangtasvir mashqlarini bir xil rangdagi bo'yoqlar orqali ya'ni (grezayl) uslubidan boshlagan ma'qul.

### **Yorug' - soya va issiq - sovuq ranglar haqida tushuncha**

Ranglar uyg'unligi haqida gapirar ekanmiz, avvalo rangtasvirdagi issiq – sovuq, yorug'-soyalardagi ranglar tushunchasi haqida to'xtalib o'tishimiz lozim. Eng avvalo rangtasvirdagi yorug' va soyaning, issiq-sovuq ranglarini ko'ra bilishimiz va his qilishimiz kerak bo'ladi. Bu qonuniyatning asosi shundaki, rangtasvirdagi yorug' joylar sovuq ranglar orqali tasvirlansa, undagi soyalar issiq ranglar bilan ishlanishi yoki issiq ranglar bilan tasvirlanayotgan yorug'liklardagi soyalar sovuq ranglar bilan tasvirlanishi lozim bo'ladi.

Masalan; tabiat manzarasini ishlash jarayonida tabiatdagi narsalarga tushayotgan yorug'lik issiq rangda bo'lib, tushayotgan soyalar rangi sovuq rangda bo'ladi. Kechki payt oy nurining tovlanishi natijasida yorug'likning o'ta past aks etishi, ishlayotgan rangtasvirimizda namoyon bo'ladi. Agar biz osmondan tushayotgan yorug'lik aksini sezsak, bunday hollarda yorug'lik tushayotgan narsa sovuq, uning soyasi esa, issiq ranglarda bo'ladi. Biz rangtasvir ishlash jarayonida yorug'likning qay tarzda tushishini kuzatsak va puxta o'ylagan holda ishni boshlasak, bunday hollarda ishlayotgan rangtasvirimiz ranglarga boy va ranglarning uyg'unligi bilan o'zining mukammal asar ekanligini namoyish etadi. Yorug'-soya, issiq-sovuq ranglar yordamida biz nafaqat tasvirdagi buyumlarning hajmini yoki narsalarning shaklini tasvirlaymiz balki rangtasvirdagi eng qiyin jarayonlardan biri bo'lgan, buyumlarning bir-biriga tushayotgan aksini (refleks) ham tasvirlaymiz. Bu bilan rangtasvirning asosiy jarayonlaridan biri bo'lgan yorug'-soya va issiq-sovuq ranglarning umumiy tushunchasiga ega bo'lamiz.

### **Rangtasvirda ranglar qarama- qarshiligini his qilish**

Muntazam ravishda ko'z orqali ko'rib, qo'l bilan bajarilgan mashqlar, oxir oqibat, ranglar qarama-qarshiligi, ranglarni farqlash, ranglarni ko'ra bilish, ranglar ashyolarini mohirona ishlata bilish, darajasiga olib keladi. Mohir rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatar ekanmiz, bunday asarlarning yengil va mohirona tasvirlanganini ko'ramiz. Natijada ulardan olam- olam zavq olamiz, hamda ulardan

o'rganishga harakat qilamiz. Bunday katta amaliyot mashqlarini bajarish natijasida, qo'yimalardagi ranglarni va undagi ranglar uyg'unligi darajasini yengil va mohirona tasvirlashni o'rganamiz. Har qanday natura qo'yilmasini, asosiy va yagona yaxlit obrazlar qatorida ko'rib chiqishimiz kerak bo'ladi.

Ma'lum bir muddatda natyurmortning alohida buyumlardan tashkil topishini, masalan; ko'za, olma, kosa; manzarada esa – birinchi plandagi narsalar osmon, o'rmon, o't – o'lanlar, toshlar; eng oxirgi planda – moviy tog'lardan hosil bo'lishini esdan chiqarmasligimiz lozim. Bunday qarash orqali naturadagi tasvirlashimiz lozim bo'lgan ranglarni emas, balki buyumlarning bo'yog'ini ko'ramiz xolos.

Bu esa, akvarelda ishlash vaqtida, natura obektidagi ranglar uyg'unligini, rangtasvir asarining bir qismiga aylanib, ranglar jarangdorligini bor butunligicha qabul qilinishi, huddi bir butun simfoniya asarining musiqa asboblari yordamida, ijro etilayotganiga o'xshatish mumkin.

### **3. Akvarelda natyurmort kompozitsiyasini ishlash**

Rangtasvir mukammal kalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o'tishdan oldin natyurmortning kalamtasvir kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga kiskacha tuxtalib utamiz. Tasvirlovchi narsalar tuplamiga (natyurmort) ma'lum bir kurish nuktasidan karaydi va u kuz karashiga katiy ravishda kuzatish perspektivasi konuniyatining uzaro bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashkari, naturadagi narsalar uzaro yoritilganligi va bir-biriga bo'Klangan bulib, ular oraliKida reflekslar, yarimsoyalar, soyalar va yorug'liklar taksimoti ma'lum bir tartibda bo'ladi. Mabodo kurish nuktasi uzgartirilsa naturaning uzaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Kurish nuktasi yorug'likka karama-karshi bulganda tasvirni siluet tarzida kurish mumkin. Natyurmortni tasvirlash jarayonida tuplamdagi barcha narsalar, ularning uzaro joylashuvi... soya-yorug' va tus munosabatlarini obrazli ko'rinishiga buysundiriladi va idrok kilinadi. Natyurmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, uni kaysi nuktadan kuzatganda xam u yaxlit bir butun ko'rinishiga erishmok zarur. Bu ishning muvaffakiyatli chikishi rassomning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog'liqdir. Naturaga nisbatan kizikarli kurish nuktasini tanlab olgach, qog'oz varoKi yoki mato qanday ulchamda bulishligini aniqlash zarur. Qog'oz varoKida ifodalanadigan natyurmort kuyilmasini naturadan to'g'ri aniqlab tasvirlay olish kerak.

Tajribasiz rassomlarning mato yoki qog'oz varoKi tekisligida tasvirlashlaridagi asosiy kamchilik shundan iboratki,ularda plastikali tasvirlash, izlanish jarayoni mukammal emas. Shuning uchun tasvirlash mobaynida aniq metodik ketma-ketlikka kat'iy rioya kilish, samarali natija garovidir.

Natyurmort kompozitsiyasini kurulishida dastlab qog'oz yuzasida tasvirlanayotgan narsalarni puxta joylashuvi, qog'oz ulchamiga nisbatan tasvirning katta kichikligini aniqlashdan iborat. Uar bir natura kuyilmasi muayyan ulchamdagi qog'ozni talab kiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma'lum ulcham tekisligida «tikilinch», yoxud juda xam kichik joylashib kolmasligi zarur. Uaddan tashkari kichik joylashgan tasvirlar qog'oz tekisligida aniq kurinmaydi.

Tasvirda asosiy e'tiborni uziga jalb etuvchi buyum – kompozitsiya markazini... kolganlari esa unga tobe bulib xizmat kiladi.

Tasvirda tomoshabinning nazari ana shu markazga yunaltirilgan bulishi kerak. ulchamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik ulchamdagi qog'oz bulagida bulajak natura kuyilmasini xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan sung, asosiy ishga o'tish maksadga muvofikdir.

Dastlab oddiy natura kuyilmalaridan (gipsli geometrik shakllardan)... keyin esa geometrik shakllarga yakin bulgan maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarni astoydil ishlash... sungra, turli rangdagi, materiallikdagi buyumlardan tuzilgan kuyilmalarni (plener sharoitida va intererda joylashtirilgan natyurmortlar) tasvirlash mumkin.

Natyurmort kuyilmasini tasvirlashda ishni aloxida-aloxida buyumlardan boshlab sungra boshkalariga o'tish aslo mumkin emas. Narsalar guruxini qog'ozga to'g'ri joylashtirishda nisbat, oralik masofalar, fazoviy joylashuvda xatolikka yul kuymaslik muximdir. Buning uchun narsalar tuplamini yengil chiziklar bilan belgilab chikish zarur. Tasvirlashda narsa va buyumlarning perspektiv kiskarishlarini puxta bajarish uta muxim.

Rangtasvir uchun dastlabki kalamtasvir ishlarini bajarayotganda... yosh rassomlar narsa va buyumlarning tekislikdagi fazoviy joylashuvi, nisbatlari, xajmini, buyumlarning konstruktiv kurilish kabi vazifalarni tulik bajarishmaydi. Ularning diqqat e'tibori narsalarni kontur chiziklarini tasvirlashga karatilgan bo'ladi. Ularning fikricha narsaning sirtki ko'rinishi chizilsa, shakl xam to'g'ri tasvirlanadi deb xisoblaydilar. Buyumning tashki ko'rinishini tasvirlayotib, uning konstruktiv kurilishi, nisbat kabi xususiyatlari nazardan kolib ketishi mumkin.

Narsalarning uzaro joylashuvi, istagan kirasini yunalishi naturada osongina aniqlanadi va naturaning yunaltiruvchi va vertikal (tik), gorizontal (yotik)

chiziklari yordamida tasvir qog'ozda yengil kuriladi. Uzun kalam yordamida kurilmaning perspektiv burchaklarini, kirra nisbatlarini, stol tekisligida uzaro turgan joylarini tekshirish mumkin. Buning uchun kalamni chuzilgan kulda vertikal, gorizontal yoki burchak ostida ushlab kirralarni perspektiv yunalishini tekshirish mumkin.

Kuyidagi tasvirda konusning asos kismini kubning yukori tomonining eniga bulgan nisbatini kalam bilan asosini chekka ung burchak yoniga kuyib vertikal buyicha tekshirish mumkin. Naturada bu vertikal kubning koraytirilgan tomonini urtasidan kesib utadi...kalamtasvirda esa bunday bulmasligi mumkin. Xatosini aniqlab uni darxol tuzatamiz. Agarda konusning chap tomonini davom ettirsak... u silindrning aylana asosiga zurga tegadi. Bu yerda xam kalamtasvir aytarli darajada aniq emas. Vazani yukori kismi orqali gorizontal chizik utkazib uning balandligini konus buyiga nisbatan aniqlash mumkin. Yana silindrning ikki tomonini davom ettirsak... kaerga borib takalishini tekshirib kurish mumkin. Naturada kubning oldingi kirrasi konusning markazi bilan rupara kelmaydi, kalamtasvirda u aynan markazda bulib ko'rinishi xam mumkin. Shunday kilib yana bitta xatosini topamiz. Endi gorizontal joylashgan kalamni naturadagi kubning asosiga keltiramiz va kanchalik silindr asosini pastida bu chizik o'tishini kuzatamiz. Naturada ikkalasini asosi deyarli bitta gorizontal chizikda joylashgan. Buni kalamtasvirda tekshirib kuramiz.

Narsalarning nisbatlarini aniq-lab, ularni perspektiva konun-koidalariga amal kilib kurish xamda yengil-yelpi soyalarni berish mumkin. Bu esa narsalarning nisbatlarini xam va ularning uzaro joylashganligini ancha aniq yetkazishga imkon beradi. Stol tekisligidagi narsalar tuplamini joylashtirishda ularning asoslarini kurish juda xam muxim. Uar bir narsaning joyini aniqlamasdan ular orasidagi kenglikni yetkazish mumkin emas. Ayrim narsalar xavoda «muallak» bulishi yoki biri ikkinchisiga «uyib» kirgandek ko'rinishi mumkin.

Tasvirlash jarayonida aloxida narsalarni va ularning kismlarini katta-kichikligini xar doim bir-biriga takkoslab borish zarur.

Moybo'yoqli rangtasvir uchun matoda kumir yordamida yorug' va soyalar bilan kalamtasvir ishini bajarish mumkin. Narsalarni xajmdor shakli yorug' soyalar bilan kurilsa kalamtasvir aniq kurinadi. Tayyor bulgan tasvirni tashki ko'rinishlari tush bilan chizib chikib, kumirni esa latta bilan kokib tashlanadi. Shunday kilinsa buyash uchun zarur bulgan natyurmortning aniq ko'rinishi koladi.

Rang bilan ishlash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha albatta metodik ketma-ketlikka rioya kilish muximdir.

Endi o'quv natyurmortini amaliy bajarishga utamiz. Dastlab fakat tusli (grizayl texnikasidagi rangtasvir)... keyin rangli (akvarel va moyli bo'yoqlarda) tasvirlash jarayoni bilan tanishamiz.

#### **4 Akvarelda qisqa muddatli etyudlarni bajarish**

Uzoq muddatli akvarel rangtasvirini ishlashdan oldin bir nechta qisqa muddatli etyudlarni amalga oshirgan ma'qul.

Bu orqali yosh ijodkor o'z oldiga bir qancha vazifalarni maqsad qilib qo'yadi. Birinchi navbatda ular, ranglar munosabati, ranglar uyg'unligi, buyumlar hajmi va qismlarga ajratish (detalizatsiya) jarayonlari qonun- qoidalariga ega bo'lib boradilar. Bunday holatlarda ayrim yaxlit narsalargina ishlanadi, masalan; qo'lning alohida ishlanishi, tabiatning bir qismi, bir nechta buyumlarning bir bo'lagini ishlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi etyud mashqlarini ishlash vaqtida ranglar aralashmasini bosqichma-bosqich amalga oshirgan ma'qul. Bunda etyudlar och ranglar bilan boshlanib asta-sekinlik bilan to'q ranglarga o'tiladi.

Akvarel bilan ishlash jarayonida tasvirlanayotgan buyumning hajmiga, yorug' – soya tomonlariga va eng yorug'(blik) qismiga hamda ranglarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratilishi kerak bo'ladi. Manzara rangtasviri ishlayotgan paytimizda biz tirik tabiat bilan o'zaro muloqotda bo'lamiz. Bu orqali tabiatda ro'y berayotgan o'zgarish – hodisalarni, ranglarning tez – tez o'zgarayotganini his qilamiz va kuzatamiz.

Endi esa har doimgidek rangtasvir ishlashni natyurmortdan, u orqali esa natyurmortdagi issiq- sovuq ranglar, buyumlardagi eng och va to'q tuslar, eng yorug' joy (blik), soya, yarim soya, tushuvchi soya ranglarini o'rganishda davom etamiz. Bunday natyurmortni ishlash uchun bizga har doimgidek natyurmortning kichik ko'rinishidagi qisqa muddatli etyudlarini ishlashdan boshlaymiz. Avvalo natyurmortda qo'yilgan buyumlar soni 2tadan 5tagacha bo'lishi kerak. Natyurmortni iloji boricha xonaning yorug' qismiga ya'ni derazaga yaqinroq qilib joylashtirishimiz lozim. Ana endi asosiy ishga, ya'ni qisqa muddatli etyudlarni bajarishga o'tamiz. Bunda eng asosiy vazifa buyumlarni qog'oz yuziga joylashtirishdan boshlanadi. So'ngra natyurmortdagi eng och va to'q tuslarni aniqlab qog'oz yuzasini ho'llagan holda etyudni davom ettiramiz.

Undan keyin qog'oz yuzasiga ranglarni qo'yayotganimizda, natyurmortdagi buyumlar sirtidagi eng yorug' joyni (blik) bo'yamasdan qoldirib ketamiz. Chunki

akvarel ranglari orasida oq ranglar bo'lmaydi, shuning uchun ham akvarel rangtasvirida oq rang o'rnini qog'ozning rangi to'ldiradi. Natyurmortdagi buyum va matolarning umumiy tuslarining, rangini qo'yganimizdan keyin , natyurmortdagi issiq – sovuq ranglarni yorqin, tiniq bo'yoqlar orqali qo'yilmadagi (postonovka) yorug', soya, yarim soya va tushuvchi soyalarning rangini qo'yishda davom etamiz. Ranglarimiz bir oz qurishi bilan birinchi va ikkinchi planlar ustida ishlashni boshlaymiz.

Bu paytda birinchi plandagi buyumlarni qismlarga ajratish (detalizatsiya) bilan birga, ikkinchi va uchinchi planlardagi buyumlarni sayqallash (lessirovka) orqali ularni birinchi plandagi buyumlardan uzoqlashtiramiz. Shu bilan qisqa muddatli etyudimizni yakunlaymiz.

### **Gipsli geometrik shakllarni grizaylda ishlash**

Tus rangtasvirning ajralmas kismi xisoblanib u rang bilan birgalikda tasvirlanadi. Tajribasiz rassomlar uzlarining dastlabki ishlarida fakat rang bilan ovora bulib kuyilmadagi tus yaxlitligini yoddan chikaradilar, natijada ish sifati buziladi.

Rangtasvirni puxta urganishda kupgina yetuk rassom va pedagoglar (ok va kora bo'yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta axamiyat berganlar. Bu masalada D.N.Kardovskiy shunday degan: «Tusni yorug'lik orqali yetkazishdan kura ranglarda berish murakkabdir. Shuning uchun rang tasvirga o'tishda, yorug'likdagi tusga bulgan kunikmaga ega bulish kerak...». Demak... rangtasvirning boshlanKich kursida grizayl texnikasida mashklar bajarishni tavsiya kilamiz.

Tasvir kalamda puxta bajarilgach, xar bir narsa va buyumning materialligi, uning xajmi... tus munosabatlari ranglar vositasida xal kilishga utiladi. Realistik kalamtasvirning bunday sifatlariga xar bir narsalardagi (shula, yorug'lik, yarim soya, soya va x.k.) soya-yorug'lik gradatsiyasi va ularning ranglardagi uzaro tusli farklarini to'g'ri xal etish orqali erishish mumkin. Tusli farklar nimani anglatadi? Rang jixatidan ba'zi narsalar naturada zich va to'qroq... boshkalari esa ochrok kurinadi. Ayrim narsalarda shaxsiy soya to'qroq va zichrok «oKir» (masalan,

chinni kuzada, chuyan kozonda), boshkalarida esa soyalar ancha ochrok «nozik» (gipsli vaza, qog'oz rulon va x.k.) kurinadi. Bu tusli farqlarni kalamtasvirda xam teng ravishda mutonasiblikda ifodalash kerak. Bu choKda narsalar orqasidagi fonni xam xisobga olish zarur. Natura kuyilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan fonning och-tukligi munosabatlarining to'g'ri olinayotganligi kenglikni kursatishga imkon tuKdiradi.

Tus munosabatlarini eng tuk narsalardan yoki chukur ichki soyalardan boshlab kursatilishi tug'rirokdir. Uar bir narsalarning tus kuchini bir-biri bilan solishtirish zarur, narsalarning uzaro och joylarini, soyani-soyalar bilan, yarim tusni yarim tuslar bilan takkoslash zarur. Qandaydir tuk idishda shaxsiy soya undan tushuvchi soyaga nisbatan to'qroqdir. Mevalardagi yorug'lik eng yorug' joyiga karaganda to'qroq bulishi mumkin. Tasvirda va naturadagi narsalarni bir-biri bilan doimiy takkoslash orqali ular orasidagi farqlarni kamayishiga erishish zarur. Eng tuk narsalar yoki uning soyasi – bu kora baxmalda va kumir rangida emasligini, esda to'tish kerak. Qora buyumlar va ularning soyalarini ancha yumshokrok... lekin juda xam tuk kora tusda ishlash kerak emas. Uattoki kora baxmalni tasvirlashda xam kalam yoki kora bo'yoqni bor kuchidan foydalanish noto'g'ri, aks xolda qog'ozda yoki matoda xuddi kora teshik paydo bo'ladi. Shuningdek, naturadagi juda ok narsalarni toza ok bo'yoqlar bilan tasvirlashning iloji yuk chunki, u ok bo'yoqqa nisbatan ancha to'qroq bo'ladi.

Ishning birinchi boskichida – asosiy munosabatlarni aniqlash kerak. Naturadagi asosiy obektlarning yorug'-soya munosabatlari: fonning och-tukligi, narsalarning sirtidagi och-tukligiga va ularning uzaro bir-birlariga nisbatan aniqlanadi. Avvalo kuyilmadagi narsalarning umumiy tusi bir sidra koplanadi. Agar umumiy munosabatlarni notug'ri olsak kalamtasvirning aniqligi, keyingi aloxida narsalarning xajmli shakllaridagi yorug'-soya xam, tasvir aniqligi va xakkoniyligini, materiallik va kenglikni kursata olmaymiz. Ishni soyadan yorug'likka karab yuritish kerak, buning ustiga soya joylariga imkon boricha bo'yoq katlamini yupka va nozik berish, yorug'likni esa ularga nisbatan kuyuk bo'yoqda ancha to'qroq katlamli, va aniq surtmalar bilan koplash zarur.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo'yoqlar bilan koplash, (iloji boricha bo'yoqni kayta-kayta berishni takrorlamasdan) bo'yoq surtmalarini shakl yunalishi buyicha xarakatlantirish kerak. Masalan, silindrsimon shaklga ega bulgan narsaga turli tasodifiy yunalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini kursatish mushkuldir.

Naturadan tasvirlayotib narsalarning munosabatlarini nafakat tus kuchi buyicha balki uning aniqligini xam, narsalar sirtlarining kontrastli chegaralarini xam kuzatishimiz kerak. Uar bir narsaning kurinib turgan tashki ko'rinishi uzining kulamida turlicha: qandaydir narsaning yoritilgan chap tomoni yorug'lik kuchi buyicha fonga nisbatan yaqinrok bulishi mumkin. Shu narsaning ung tomonidagi chegarasi tus jixatdan fon bilan deyarli kushilib, uning yukori kirrasi fonda yakkol ajralib turadi.

Asosiy narsalar va ularning sirtlari orasidagi tus munosabatlarini to'g'ri kursatishdan tashkari, xar bir narsaning xajmli shaklini soya-yorug' bilan xam puxta ishlash kerak. Gipsli narsalarning sharsimon va silindrsimon shakllar (yorug'likdan soyaga bora turib) yuzasini xar bir millimetri asta-sekin tuklashtiriladi, buning ustiga shaxsiy soyasining eng tuk joyi soya tomonidagi narsa chegarasida emas, aksincha bir oz ichkari tomonida bo'ladi. Tashki ko'rinishning ung tomonidagi shaxsiy soyasi refleks tufayli yoritiladi.

Tekisliklar bilan chegaralangan (prizma, kub va x.k.) narsalarning yorug'-soyalarini bir boskichdan ikkinchi boskichga o'tish izchilligining xususiyati shundan iboratki,-- xar bir tekislik boshka tekislik tusidan farklanib uzining malum tusiga ega bo'ladi. Bunday narsalarning xajmi - xamma tomonlari tekislik bilan chegaralangan kenglikdir. Yorug'likka karatilgan tekisliklardagi yoyilib tushayotgan tekisliklarga nisbatan,yorqinlik ravshan yoritilgan bo'ladi. Shakllarni turlicha tusli tekisliklar bilan yasashning bunday tartibi katta kismlarga xam... kichik shakllarga xam tegishlidir.

Tusli tasvirlash mobaynida tasvirlovchidan narsalarning uzoqligini xisobga olish zarur bo'ladi. Agarda bir katorga bir xil narsalarni turli masofada

joylashtirsak, yakindagi narsalarning mayda bulaklari va materiallik fakturasi ancha aniqrok kurinadi. Uzoqlashgan sari bu aniqligi yukolib xiralasha boradi. Uzoqdagi obektlar siluetli va tekis (yassi) bulib kurinadi. Old ko'rinishdagi buyumlarning soya-yorug' kislmlari olisdagidan ravshan va aniqrok ukiladi.

Narsalarning xajmli shakliga puxta ishlov berilgandan sung, ularni umumlashtirishga o'tish zarur. Uar bir narsani tasvirlash jarayonida aloxida mayda bulaklarni, ularning yorug' soyasini maromiga yetkazib ishlash lozim. Narsalar guruxini yaxlit bir butun tasvirlash uchun, xammasini bir vaktida kuzatib, xar birining yorug' va soya joylarini barchasiga nisbatan takkoslash kerak. Narsalar guruxini yaxlitligini saklash-xakkoniy tasvirlashning asosiy shartidir.

### **Uy-ruzg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmort ishlash**

Akvarel bo'yoqida dastlabki mashklarni bajarish uchun kuyilma (3-5ta) narsadan iborat bulib, rang va tus munosabatlari bir-biridan fark kilgan... shakli buyicha uncha murakkab bulmagan buyumlar bulishi kerak. Sodda kuyilmalarni astoydil ishlab ijobiy natijalarga erishmasdan turib, murakkab natura kuyilmalarini bajarishga o'tish noto'g'ri. Akvarel bo'yoqida mashklarni muntazam ravishda bajarish va ularni asta-sekin murakkablashtirib borish maksadga muvofik.

Uzoq vaktga muljallangan xar qanday vazifa oldidan dastlabki kiska muddatli etyudlarni bajarish muximdir. Shu tarika bajarilgan ranglavxalar tasvirlanayotgan naturani katta xajmga ega bulgan matoda yoki qog'ozdagi kompozitsiyasini to'g'ri topishga kumaklashadi va ishlash jarayonida naturadagi dastlabki taassurotlarni aniq yetkazishda va uning rang munosabatlariga xos xususiyatlarni aniq kursatishda namuna bo'ladi.

Natyurmortni akvarel bo'yoqlari bilan rangda ishlash jarayonini (kurgazmali) amaliy namoyish etish uchun biroz murakkab bulgan mevalar va maishiy narsalardan tuzilgan natura kuyilmasini olamiz. Kuyilmadagi sopol idish tekis yaltirok yuzaga ega shuningdek, ravshan ifodalangan (nur) shu'lasini mavjud. Uamma narsalar stol ustiga joylashtirilgan orqada yorqin kul rangdagi devor foni

va sidirga matolar. Mevalarda aniq belgilangan shaxsiy, tushuvchi va yarimsoyalar aniq kurinib turibdi. Sopol idishda ilik va sovuk reflekslar mavjud.

Bunday tuzilgan natyurmortning kalamtasviri kiyinchiliklarni tutdirmaydi, ammo ranglarda tasvirlash biroz murakkabrokdir, chunki mevalarning aniq rangini tasvirlash uchun rang munosabatlariga kat'iy amal qilish zarur. Bo'yoqni dastlabki katlamini kuyishdan boshlab rang munosabatlaridagi mutanosiblikni saklab borish kerak. Akvarel bo'yoqlari kurigach biroz okaradi, shuning uchun xam ularni rang jixatdan to'qroq olish mumkin.

Akvarel bo'yoqlari bilan tasvirlash jarayonida narsa va buyumdagi yorug' bulib turgan kismalarini buyamaslikka xarakat qilish kerak.

Malaka ortib borgan sari kerak bulgan tuslarni tezda xosil qilish mumkin, qog'oz yuziga kanchalik ortikcha bo'yoq katlami surtilsa, narsalarning rangi xira bo'ladi. Madomiki, ranglarni birdaniga olinib kerakli joyga surtilsa, uning yonidagi tuslarni xam topish yengil kuchadi.

Birdaniga tanlab kuyilgan ranglar naturadan bevosita birinchi taassurotlarni anchagina to'g'ri yetkazadi.

Tasvirlovchi xar bir narsaning xajmdor shaklini soya yorug'ning uzgarishi bilan bog'liq bulgan, uning rang uzgarishlarini xam e'tibor bilan kuzatib borishi kerak. Jigarrang idish yarim soyada va yorug'likda xilma-xil rang turiga ega. Fondan tushayotgan reflekslar jigarrang emas, balki siyoxrangdir. Undan tashkari mevalar soyasida reflekslar mavjud, ular uzaro och-tukligi bilan va rang turlari buyicha farklanadi.

Eslatib utmokchimizki, xamma (narsalar) buyumlarni bir vakti uzida och-tukligi, rangdorligi va tuyinganligini takkoslagan xolda rang bilan buyash kerak. Demak narsalarni yakka kuzatmasdan, aksincha tuplamni yaxlit kurishga xarakat qilish lozim. Yonma-yon turgan ikkita narsaning rang farklarini takkoslash kiyin emas. Agarda oldimizda unta narsadan tashkil topgan natyurmort bo'lsa, xar bir narsaning rangini yakka xolda, shuningdek xammasi bilan birgalikda yaxlit takkoslash zarur. Ya'ni xuddi orkestrda bulgani kabi.

Orkestr – bu musika asboblardan tashkil topgan ansambli bulib, fakat dirijyorgina bu ansambldagi barcha musika asboblari bir vaktida uzi eshitadi. Rangtasvirda xam xuddi shunday, fakat yaxlit idrok etish natijasida narsalar guruxining rang munosabatlarini to'g'ri aniqlashga imkon beradi.

Uar bir narsaning xajmdor shakliga ishlov berishda undagi mavjud ilik va sovuk rang turlarini diqqat e'tibor bilan kuzatish lozim. Shu bilan birga eng muximi umumiy tus va ranglar gammasini (barcha bo'yoqlarni uyKunlik birligi) nazardan chikarmaslik kerak.

Narsalarning shu'lalarini tasvirlash mobaynida ularning jozibali ranglarini unutib fakatgina yorqinligiga erishish bilan chegaralanish kerak emas.

Uar bir narsaning och-tukligi va rangdorligi fon bilan atrofdagi narsalar rangi va och-tukligiga bog'liq bo'lsa, unda narsa rangini atrofdagilari buyalmaguncha to'g'ri ifodalash mumkin emas. Agarda bitta narsaning rangi uzgartirilsa, bu bilan birga ularning yonidagi bulaklarini xam uzgartirish kerak. Soyalar tuklashtirishsa yorug' yanada yorqinlashadi. Ammo fonni koraytirsak unda narsalardagi yorug' aniq ajralib, soylarning kontrastligi yukoladi.

Narsalarning old va orqa ko'rinishlar orasidagi kenglikni kursatishga xam e'tibor karatish lozim. Natyurmortdagi narsalar bir-biridan turli masofada joylashadi, yakindagi narsalar yorqinrok kurinadi.

Agarda uzoqda turgan narsalarning ranglarini yengil-rok va xirarok olinmasa, oldingi katorga chikib ketadi. Natyur-mortni tasvirlash vaktida xavoiy perspektivani ta'si rini xar doim xam naturada yengil sezish kiyin; shunga karamay buni xar doim yodda tutib kalam bilan tasvirlashda bitta narsani yakinrok joylashtirib, boshkasini esa uzoqlashtirib tasvirlash kerak. Agarda bo'yoq muykalam va suv bilan yaxshilab eritilgan bo'lsa, qog'oz yuzasida yorqin tasvir xosil bo'ladi. Mabodo aksi bo'lsa u xolda qog'oz satxida muykalam izlari koladi, ish esa sifatsiz chikadi.

Akvarelda tinmay vazifalar bajarish, turli usul va uslublarda astoydil ishlash orqali kunikma va malaka ortib boradi.

«Yorqin» yozish texnikasi narsaning materialligini aniq kursatishda va chukur soya joylarini shaffof bulishiga imkoniyat beradi. Agarda ish jarayonida ikkala uslubdan samarali foydalanilsa: barcha soya joylarini va reflekslarni fakat «yorqin» uslubda, yorug'lik va yarim soyalarni esa – «quruq» usulda ishlash yaxshi natija beradi. «Yorqin» uslubda ishlash «quruq» ishlashdan ustun bulishi kerak.

Narsalarning yoritilgan joylari aniq tashki ko'rinishga ega. Soya va uzoq ko'rinishdagi tus va rang kontrastlari sustrok, shakllari esa yakkol tashki ko'rinishga ega emas.

Soya va orqa ko'rinishdagi narsalarning tasviri umumlashtirilgan xolda bulishi lozim. Aynan shu joyda namligicha ishlash usulini kullash ma'kul. Ishlashdan oldin qog'ozni toza suv bilan yumshok latta yoki katta muykalam yordamida bir sidra xullanadi. Ikki-uch dakikadan sung qog'oz suvni shimib olgach akvarel bilan ishni boshlash mumkin. Bo'yoq surtmalari nam qog'oz yuzida yeyilib, bir-biri bilan kushilib, mayin va nozik o'tishlar xosil kiladi. Agarda biror bir joyini ajratish lozim bo'lsa, qog'ozni kuritib kerakli bo'yoq surtmasi beriladi yoki «quruq muykalamda aniq rangli chegarani talab etilgan joylari tuklashtiriladi. Namligicha ishlash usuli tasvirni nixoyatda nozik va jozibali kursatishga imkon tukdiradi.

Akvarel bo'yoqlari bilan ishlash jarayonida soya-yorug'dagi nozik o'tishlarni silliq lab borish kerak emas.

Quruq qog'ozdagi kuchli namlangan bo'yoq doKi kurigandan sung juda xam yakkol kontur paydo kiladi. Shuning uchun bunday dog'larni chekka kirralarini kurimasdan yumshatish lozim. Tasvirlanayotgan etyud muvaffakiyatsiz chiksa, tuslari xira bo'lsa ish jarayonini tuxtatib katta muykalam yoki paralon yoki momik paxta yordamida ishni yuvib tashlash kerak. Sungra ishni kayta akvarel bo'yoqida ishlash maksadga muvofikdir. Juda namlangan qog'oz odatda bo'rtadi, egiladi, ammo kurigan paytda yana tortilib uning yuzida ishni davom ettirish mumkin.

Akvarel bo'yoqlarida bajariladigan dastlabki o'quv mashKulotlari xar doim xam kungildagidek bulavermaydi. Ranglar xira, kir va sifatsiz bo'ladi. Bunday xolatda chuchish kerak emas, chunki taniqli rassomlar xam dastlabki urganish jarayonida barcha kiyinchiliklarni boshlaridan kechirganlar.

Umuman xaqiqiy maxorat tinmay ukish, urganish va izlanish jarayonida xamda astoydil amaliy mashklarni bajarish orqali yuzaga chikadi. Kartina haqida gapirganda: «Bu qanday dadillik bilan tasvirlangan» deb xaykirishdan kura «Qanday ajoyib» yoki «Qanday go'zal tabiat» deyilgani rassom uchun katta baxt.

Rangtasvirda eng muximi shakllarning aniqligi, oddiyligi va mazmuni chukurligidir.

## XULOSA

Mustaqil O'zbekistonimizning barcha viloyat, tumanlarida qad ko'targan kasb – xunar kollejlari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitilishini takomillashtirish borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilib, yaxshi natijalarga erishildi.

Talabalar va o'quvchilarni faolligini oshirishda sinfdan tashqari suhbat tashkil qilish katta ahamiyatga egadir. Sinfdan tashqari ishlar talabalar va o'quvchilarga dars va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Binobarin, o'quvchi yoshlarni tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini kuchaytira boradi. Talabalar va o'quvchilarni tasviriy san'atning biron turi bilan chuqurroq tanishtirishdan maqsad ularni shu soha bilan jiddiyroq shug'ullanishlariga yordam berishni amalga oshirishdir.

Suxbatlarda ko'proq rang tasvir va unda ishlashda tabiyat go'zalliklariga e'tibor berish, akvarel texnikasini mustahkam egallashga o'rgatib borish lozim. Mashg'ulotlar bir xaftada 2 martadan o'tkazilib, har bir mashg'ulot 2 soatdan davom etadi.

Suxbat a'zolarini yoshi, qobiliyati, bilimi va qiziqishiga qarab guruxlarga ajratiladi.

Suxbatning har bir a'zosi mashg'ulotlarga muntazam, aktiv qatnashishi, topshirilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi lozim.

Suhbat mashg'ulotlarining muvaffaqiyatlari bilan davom etib borishida asosiy shart-sharoit quyidagilardir:

1. To'g'arak mashg'ulotlari tanlangan mavzu bo'yicha olib borilishi va ish rejasi aniq tuzilishi lozim.
2. Mashg'ulot o'tkaziladigan xona va undagi kerakli jixozlar, ko'rgazmali qurollar, adabiyotlar hamda boshqa narsalar bo'lishi lozim.
3. Talabalar va o'quvchilarda tanlangan tasviriy san'at turi bo'yicha ta'lim va ko'nikmalarining etarli bo'lishi va mashg'ulotlar metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilish lozim.

To'garak mashg'ulotlarida narsaning o'ziga qarab rasm chizish qonuniyatlari qalamda, akvarel bo'yog'ida ishlash texnikasi o'rganiladi.

To'garak mashg'ulotlarida geometrik jismlar, uy-ro'zg'or buyumlari, maktab jixozlari, meva va sabzavotlardan tashkil topgan natryumortlar maxsus taglik ustiga qo'yiladi.

O'qituvchi to'garak a'zolari bilan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarda ularga natura predmetlarining xajmi va rangini tasvirlashda mo'yqalamdan to'g'ri foydalanish, rasmni rang bilan ishlashdagi yorug' joyidan keyingi qismiga rang tobora to'q berib ishlanishi va eng yorug' joyga rang birikmay, qog'oz toza qolishini uqdirib, so'ngi bosqichlarda esa narsalarning yorug' va soyadagi rang nisbatlarini aniqlab, uni amalda qo'llab borishlariga ko'maklashadi.

O'qituvchi rahbarligida vazifa to'liq bajarilgach, to'garak qatnashchilarining bajargan ishlari yuzasidan to'garak mashg'uloti o'tkaziladigan sinfda ko'rik uyushtiriladi. Bunda to'garak qatnashchilari o'zi va o'rtoqlari ishlarini yutuq va kamchiliklarini tahlil qiladilar. To'garak rahbari o'quvchilarning tahlil paytdagi fikrini umumlashtirib, ulargi tegishli maslahatlar beradi.

Xozirda rivojlanib borayotgan Mustaqil O'zbekistonimizning har bir yosh avlodini mustaqil fikrli, mustahkam irodali, sinchkov va mehr – muhabbatli qilib tarbiyalash lozim. Bu borada barcha soha vakillari bilan bir qatorda oilada ota – ona, mahallada qo'ni – qo'shnilar, uztozlar yanada ko'proq o'zaro aloqani yo'lga qo'ysalar, kelajakda oilalarning buzilib ketishi kabi salbiy holatlarning oldi olingan bo'lar edi.

Men ham kelgusida o'quvchilarga ta'lim - tarbiya berar ekanman eng avvalo oila mustahkamligi – jamiyatimizning poydevori ekanligi va bu poydevorning mustahkamligiga har birimiz javobgar ekanligimizni tushintirib boraman.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

2. Karimov I.A. «YUksak ma`naviyat-engilmas kuch» Toshkent.: «Ma`naviyat» 2008 yil Karimov I.A. «Yangicha fikralsh va ishlash davr talabi» asarlar tuplami Toshkent.:Uzbekiston 1997 yil.Karimov I.A. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Barkamol avlod-Uzbekiston tarakkiyotining poydevori» Toshkent.: SHark 1997 yil.
3. Umumta`lim maktablarida tasviriy san`atnn ta`limi kontsepsiyasi va standarti- Toshkent.:UzPFITI 1996 yil
4. Azimova B. «Natryumort tuzish va uni tasvirlash metodikasi» Toshkent.:Ukituvchi 1984 yil.
5. Boymetov B., Tolipov N. «Maktabda tasviriy san`at tugaragi» Toshkent.: Uz TSMU 1995 yil.
6. Davletshin M.G. «Ta`limning psixologik asoslari» -Toshkent.: Ukituvchi 1978 yil.
7. Yuldoshev J., Usmonov S. «Pedagogik texnologiya asoslari» Toshkent.:Ukituvchi 2004 yil.
8. Ibroximov X. «Tabiat:nafosat, ekologiya tugaragi dasturi» Xalk ta`limi 2001 yil.
9. B R. «Innovatsion texnologiyalar yordamida ta`lim samaradorligini
- 10.O`zbekiston umumtalim maktablarida o`quvchilarni sa`nat vositasida estetik ruxda tarbiyalash. Maqollar to`plami. Masul muxarrir R. Xasanov.- Toshkent. O`z PFIFI 1983.
- 11.Yangi O`zbekiston san`ati San`at 1999.
- 12.Xasanov R, mavzu asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya. O`qituvchilar uchun qo`llanma. Toshkent. O`qituvchi. 1980.
- 13.Xasanov R, tasviriy san`atni o`qitish jarayonida o`quvchilarni milliy mafkurasi ruxida tarbiyalash. Maktab va xayot. 2005.

14. Xasanov R , tasviriyy san'at darslarida o'quvchilarni estetik ruxda tarbiyalash.  
O'zbekiston umumta'lim maktablarida o'quvchilarni san'at vositasida estetik  
ruxda tarbiyalash. Toshkent. O'z PFII, 1983.
15. Manba: uza.uz Maqola sanasi: 22 Dekabr 2011
16. Amir Temur jahon tarixida..- Toshkent: Sharq, 2001
17. Bazanova. Ye Stixiya vody i kraski (chast 6) . 2008
18. Rangtasvirda akvarel bilan ishlash texnika va texnologiyasi (ma'ruza matni)  
A. Yusupov Toshkent 2011 y